



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYORLASH VA ULARNI MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI



"STOMATOLOGIYA"



TOSHKENT 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

“Stomatologiya”yo‘nalishi

**“STOMATOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY KOMPYUTER
DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBI YM AJMUA

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020
yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchilar: Toshkent davlat stomatologiya instituti Bolalar terapevtik stomatologiya kafedrasи dotsenti L.A. Abduazimova.

Taqrizchilar: Toshkent pediatriya tibbiyat instituti, Jamoat salomatligi, sog‘liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish kafedrasи mudiri t.f.d., prof. Sh.T.Iskandarov

Toshkent tibbiyat akademiyasi, Jamoat salomatligi, sog‘liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish kafedrasи dotsenti t.f.n., dotsenti Sh.D.Karimbaev

*O‘quv -uslubiy majmua Toshkent tibbiyat akademiyasi Kengashining 2020 yil
25-dekabrdagi 7-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	I-5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....	II-11
III. NAZARIY MATERIALLAR	17
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	22
V. GLOSSARIY	31
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	36

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Stomatologiya fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuter diagnostika va davolash” modulining maqsadi: Stomatologiya fanlarini o‘qitishda maqsadi tinglovchilarni hozirda mavjud bo‘lgan zamonaviy ta’lim innovatsiyalari kompyuter diagnostika va davolash usullari bilan tanishtirish va ana shu innovatsiyalar va texnologiyalardan mahorat bilan foydalanish malakasini shakllantirishdir.

“Stomatologiya fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuter diagnostika va davolash”

modulining vazifalari:

- Shifokor pedagoglarga nisbatan zamonaviy talablarni ko‘rib chiqish;
- Ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tadbiqu etishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganib chiqish;
- Tinglovchilar faoliyatini faollashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiqu etishga o‘rgatish;
- Pedagogik innovatsiyalar-pedagog mahoratini rivojlantiruvchi omil sifatida shakllantirish;
- Stomatologik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan ilg‘or ta’lim texnologiyalari: elektron va multimedya darsliklar, yo‘naltiruvchi matn, loyiha metodlarini zamonaviylashtirish va amaliyotda qo‘llash;
- Pedagogik kadrlar tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar; stomatologik fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalari haqida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shakllantirish va chuqurlashtirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar “Stomatologiya fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuter diagnostika va davolash” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- Stomatologiya fanini o‘qitishdagi Stomatologiyadagi ilmiy -uslubiy yangiliklar va yutuklar zamonaviy diagnostika usullari o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:
- Tinglovchi:
 - zamonaviy kompyuter diagnostika usullaridan foydalana olish;
 - diagnostik uskunalar bilan ishlash;
 - elektron darslik va ukuv kullanma yaratish
 - funksional usullardan foydalanish ko‘nikma va malakalarini egallashi zarur.
 - antropometrik, grafik, funksional, mikrobiologik, bioximik usullarni qo‘llash;

- ularni sifatli va samarali tahlil qilish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim
- Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘qituvchilar malakasini oshirishga qo‘yiladigan davlat talablari va tayyorgarlik yo‘nalishlari bo‘yicha namunaviy dasturlar asos qilib olingan. Oliy ta’lim muassasalari “Stomatologiya fanlari (gospital va fakultet ortopedik stomatologiyasi, yuz jag‘ jarroxligi, ortodontiya va bolalarni protezlash, oral jarroxligi va inplantologiya, bolalar stomatologiyasi, bolalar jarroxligi stomatologiyasi)” ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklari umumkasbiy va maxsus fanlarda pedagogik faoliyatga nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta’minalash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Fan mazmuni o‘quv rejadagi uchinchi blok va mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning umumiyligi tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar Stomatologiya fanini o‘qitishdagi yangiliklar va yutuklar zamonaviy kompyuter diagnostika usullari o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					Ko‘chma mashhulot	
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Jumladan		
			Nazariy	Amaliy	mashg‘ulot			
1.	Stomatologiya fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuter diagnostika	10	10	3		5	2	
2.	Ortodontik bemorlarni maxsus tekshirish usullari: rentgenografik, telerentgenografik, antropometrik. Zamonaviy diagnostika va davolash usullari	10	10	3		5	2	
	Jami:	20	20	6		10	4	

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Stomatologiya fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuter diagnostika

Stomatologiya fani amaliyotida simulyator texnologiyalaridan foydalangan xolda, tish kasalliklari davolash muolajalarini olib borishni o‘rganish. Pet – pozitron-emulsion texnologiyada diagnostika qilishni o‘rganish. Introoral skanerlar xaqida malumotlar olish. Led lampalardan karies kasalliklarini aniqlashda foydalanishni o‘rganish.

2-Mavzu: Ortodontik bemorlarni maxsus tekshirish usullari: rentgenografik, telerentgenografik, antropometrik. Zamonaviy diagnostika va davolash usullari

Ortodontik tashxislashda rentgenologik usullar. Jag‘larning va og‘izning kattalashtirilgan rentgenografiyasi. Jag‘larning panoram rentgenografiyasi. Chakka-pastki jag‘ bo‘g‘imi rentgenografiyasi va tomografiyasi. Jag‘larning ortopantomografiyasi. Yuz suyagini telerentgenografik tekshirish. Jag‘larning tashxislovchi modellarini biometrik o‘rganish. Antropometrik tekshirish usullari. Bosh o‘lchami, yuz va uning ayrim qismlari. Yuz suyagini o‘lchami bilan tish - alveolyar yoyini bir-biriga bog‘liqligi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Stomatologiya fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuter diagnostika Stomatologiya fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar yordamida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shakllantirish va chuqurlashtirish

1. Stomatologiya fani amaliyatida simulyator texnologiyalaridan foydalangan xolda, tish kasalliklari davolash muolajalarini olib borish;
2. Pet – pozitron-emulsion texnologiyada diagnostika qilish;
3. Introoral skanerlardan foydalanish;
4. Led lampalardan karies kasalliklarini aniqlashda foydalanish.

2-Mavzu: Ortodontik bemorlarni maxsus tekshirish usullari: rentgenografik, telerentgenografik, antropometrik. Zamonaviy diagnostika va davolash usullari

1. Ortodontik tashxislashda rentgenologik usullar.
2. Antropometrik tekshirish usullari.
3. Biofunktional usullari

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI

Maqsad: tinglovchilarni yangi stomatologik texnologiyalar bilan tanishtirish va ularni amaliyeta qo'llashni o'rgatish.

1. Stomatologiyada yangi zamonaviy usullarni qo'llash
2. Stomatologik simulyatsion apparatda ishlash koidalari
3. 3D printerda modellashtirish usullarini o'rgatish
4. Dental kompyuter 3D tomografiyani o'qishni o'rgatish
5. Cad-Cam usulini o'rgatish

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

«AQLIY HUJUM» strategiyasi

Strategiya o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalaridan ijobiy foydalanishga doir ko‘nikma, malakalarni hosil qilishini rag‘batlantiradi. Uning yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ix- tiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o‘ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. Strategiya mavzu doirasida ma’lum qarash- larni aniqlash, ularga muqobil g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Uni samarali qo‘llashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning o‘zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish, g‘oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki qog‘ozlarni tayyorlab qo‘yish

Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash

Mashg‘ulot jarayonida amal qilinadigan shartlarni belgilash

Bildirilayotgan g‘oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish, qog‘ozlar g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘ldirilgandan so‘ng yozuv taxtasiga osib qo‘yish

Bildirilgan fikr, yangi g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga e’tibor qaratish

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)ning boshqalar bildirgan fikrlarni yodda saqlashi, ularga tayanib yangi fikrlarni bildirishi va ular asosida muayyan xulosalarga kelishiga erishish (bildirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi)

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar tomonidan mustaqil fikr yuritilishi, shaxsiy fikrlarning ilgari surilishi uchun qulay muhit yaratish

Ilgari surilgan g‘oyalarni yanada boyitish maqsadida o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larni quvvatlash

Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g‘oya)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik

Yangi g‘oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to‘g‘ri yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik

«BALIQ SKELETI» grafik organayzeri (GO)

Grafik organayzer o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o‘qituvchi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larni GO ni qo‘llash sharti bilan tanishtiradi;**
- 2) o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar kichik guruhlarga biriktiriladi;**
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;**
- 4) guruhlar o‘z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;**
- 5) jamoa guruhlarning yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi**

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:

1-yechim

(omil)

3-yechim

(omil)

5-yechim (omil)

Tahlil
qilinadigan
muammo

2-yechim (omil)

4-yechim (omil)

«BAHS-MUNOZARA» strategiyasi

«Bahs-munozara» strategiyasi ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig‘ida va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og‘zaki bahs bo‘lib, o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma’lum masalalar hal qilinadi.

Uni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larga oldindan ma’lum qilinadi

Jarayon o‘qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo‘yicha shaxsiy mulohazalarini bayon qiladi

Bahsda masalaning mohiyati, yechimi bo‘yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi

Echim bo‘yicha asosiy fikrni bayon etadigan o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larga 10 daqiqa, qo‘srimcha qilish istagida bo‘lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O‘qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

Izoh: 1) bir o‘quvchi (tinglovchi va kursant)ga ikki marta so‘zga chiqishga ruxsat etilmaydi;

2) o‘qituvchi (boshlovchi) o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning mavzu- dan chetga chiqmasliklarini qat’iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shun- day holatlar sodir etilsa, so‘zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

«BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN.

BILIB OLDIM» (BBB) grafik organayzeri

«BBB» grafik organayzeri o‘quvchi (tinglovchi va kursan)larga muayyan mavzu bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkoni- ni beradi. Uni qo‘llashda o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishslashda mashg‘ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:



Har bir guruh umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg‘ulot yakunida loyiha bandlari bo‘yicha guruhlarning munosabatlari umumlashtiriladi

Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g‘oyalarni umumlashtir

**O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan
quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:**

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Grafik organayzerdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:

Ўқувчиларнинг ўрганилиши режалаштирилаётган мавзу
бўйича тушунчаларга эгалик даражалари аниqlanadi



Ўқувчилар мавзуга oid маълумотлар билан батафсил таништирилади



Ўқувчиларнинг мавзу бўйича мавжуд билимларини
бойитишга бўлган эҳтиёjlari ўрганилади

Bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti quyidagicha:

- 1) o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar kichik guruhlarga biriktiriladi;
- 2) o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning yangi mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajasi o‘rganiladi;
- 3) o‘quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
- 4) o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi;
- 5) o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo‘yiladi;
- 6) o‘qituvchi yangi mavzuga oid umumiylar ma’lumotlardan o‘quvchilarni xabardor qiladi;
- 7) o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
- 8) bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo‘yiladi;

9) mashg‘ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Stomatologiya fanini o‘kitishning zamonaviy kompyuter diagnostika

Tishlarning kompyuter tomografiyasini eng to‘g‘ri diagnostika usullaridan biri bo‘lib xisoblanadi xozirgi kunda stomatologiyaning barcha soxasida ko‘llaniladi. Uning yordamida butin og‘iz bo‘shlig‘i o‘rganiladi.

KT ni tekshirish bu rentgen nurlardan foydalangan xolda yuz jag‘ sistemasida uch o‘lchamli suratini oladi.Bu anik tashxis ko‘yish imkonini beradi. Uch o‘lchamli surat tish va tish milk kasalliklarda eng anik ma`lumotlarni beradi chunki o‘rganyotgan soxanining istalgan burchak ostida o‘rganish imkonini beradi.

KT suyak to‘kimalarning xolatini o‘rganish usullardan biridir.Ortopantogramma va rentgenografiya bilan birga u stomatologiya va otorinologiyada faol ko‘llaniladi.Oddiy rentgen tasviri malumotlarning atiga 30-40% Tamografik malumotlar 100% aniklikda beradi.

X-ray tekshiruvlari jaroxatlar, yallig‘lanish, o‘sma kasalliklarda xal kiluvchi roli o‘ynaydi. Kolgan oddiy rentgenologik tekshiruvlar xar doim xam anik tasvir bermidi.Ko‘pincha og‘iz bo‘shlig‘i tomonida yoki ildiz bifurkatsiya soxasida joylashgan patologik o‘zgarishlar tishlarning soyalari orkasida ko‘rinmaydi orka yuzada joylashgan ildiz yoriklari aniklanmaydi. Yuz jag‘ bo‘shlig‘i va pastki jag‘ kannallarning maydonlari xar doim xam bir xil uzunlikda emas.

Yassi panoramali tasvirdan farkli o‘larok tamografiya deyarli barcha katlamni olishga imkonini beradi. Suyak to‘kimalarning kalinligi va balandligi ko‘yilyotgan implantning pastki jag‘ nervidan masofasi milimetrik o‘lcham bilan aniklanadi.Bundan tashkari yangi diagnostika usuli implantning turi va xajmini anik bemorning induvdal xususiyatlarga mos ravishda tanlashga imkonini beradi.

Rlanmeca promax 3D bilan bemorga tasir kilish minimal va odatiy panoramali tasvir bilan takkoslanadi Rlanmeca dental va volometrik tomogafiyalari rentgen nurlarini xosil kilish uchun konisning nurlari texnologiyasi asosida yaratilgan bu yesa bemorning sog‘ligi to‘g‘risida minimal nurlanish dozalarda to‘lik malumot olishga imkonini beradi.

Tadkikot natijalari uch o‘lchovli tasvirga asoslangan xolda davolash rejasini samarali tuzish shuningdek implantatsiya va ortopedik davolanishning bevosita

va uzok muddatli natijalarni aniklanadi shuning uchun yetakchi stomatologik klinikalar KT sini afzal ko‘rishadi.

Tasvir paytida tomograf 300 xil proeksiyada tasvirlarni kayd etadi keyin kampyuter tasvirlarni kayta ishlaydi.Tish jag‘ sistemasining 3D modelini yaratadi.Natijalarni malumotlar bazasida saklaydi.Bemor uchun CD da yoziladi. Natijilar bilan ishslash xar kanday kompyutirda mavjud.Disk ishga tushirilganda dastur avtomatik ravishta ishga tushadi.Minimal nurlanish tasiri; tez kurish vakti –atigi 14 soniya olingan tasvirning yukori sifati ushbu kuydagisi ixtisosligidagi vrachlar uchun katta diagnostika imkonyatlarinini beradi.

- Yuz-jag jarroxi .
- Stomatolog
- Otorinolaringolog

KT uchun kursatmalar:

*Implantatsiyani rejallashtirish

*tish ildiz soxasidagi suyakning yalig‘lanish jarayonlari ni baxolash

* Ildiz kanallarni baxolash

*ChPJB ni baxolashda.

*Yuz suyaklarning sinishini baxolashda.

* Yukori jag‘ bo‘shlig‘ini baxolashda

* Tish-jag‘ sistemasi anomaliyalarda

KT tekshiruv bolalarda tashxis ko‘yish uchun katiy ko‘rsatma bo‘lganda amalga oshiriladi

Zamonaviy tomograflar fakat tekis katamlarni rasmga olish bilan chegaralanmaydi . Kurilma jag‘ning 3D modelni xam yaratadi.

2-mavzu. Ortodontik bemorlarni maxsus tekshirish usullari: rentgenografik, telerentgenografik, antropometrik. Zamonaviy diagnostika va davolash usullari.

Ortodontik bemorlarni rentgenologik tekshirish usullariga umumiyl tavsifnomalar berish.Og‘iz ichi rentgenografiyasini

Dental renten apparatlari bilan olinadi.

- So‘rilayotgan tish ildizini yo‘nalishi va joylashishi
- Periodont to‘qimasining xolatini aniqlash uchun
- Sut tishlarining so‘rilish darajasini aniqlash uchun
- Retenirlangan yoki ortiq sonli tishlar, adentiya borligiga gumon qilinganda

Og‘iz tashqarisi rentgenografiyasiga kiradi:

- Panoram tasvir
- Ortopantomografiya
- Telerentgenografiya

Dental, panoram rentgenografiya, ortopantomografiya usullari.

Panoram rentgenografiyasini yoki yuqori yoki pastki tish yoyini, jag‘suyagini yoyilgan xolda tasvirlab beradi.

Usulni asosiy xususiyati:

- Katta ulchamli pylonka 12x30 sm
- Kattalashgan tasvir 1,8-2 marta
- Plenka tashkaridan qimirlamaydi
- Maxsus rentgen - apparatlar: «Panoreks» yoki «Panoramiks»

Ortopantomografiya - Paatero (Finlyandiya) tomonidan 1958 yil ishlab chiqilgan.

- Maxsus rentgen apparat - ortopantomograf
- Rentgen plenka tekshirilgan bemorning kallasi atrofida aylanadi
- Kalla sefalostatda qimirlamasdan maxkamlanadi

Rentgen surati o‘tkaziladi:

- Tishning toj qismi va ildizi, ikkala jag'larning mineralizatsiya darajasini aniqlash uchun
- Sut tish ildizining so'rilib darajasi va ularning doimiy tish murtagiga munosabatini bilish uchun
- Retenirlangan va noto'g'ri yorib chiquvchi tishlarni aniqlash uchun
- Jag'ning oldingi va yon qismlarida tish alveolyar balandlikni aniqlash uchun
- Tishlarining paralelligini kuzatish uchun

Chakka pastki jag' bo'g'imi rentgenografiyasi o'tkaziladi sagital yoki transverzal yunalishda.

Parm usuli –bu yaqin fokusli rentgenografiya (og'iz keng ochilgan xolda va tishlar jipslashgan xolda qo'llaniladi) Chakka-pastki jag' bo'g'im tomografiyasi asoslarini bayon qilish va ko'rsatish. Chakka pastki jag' bo'g'imi tomografiyasi — bu qavatma-qavat rentgenografiya, (boshni tashqi yuzasidan 2 sm chuq urlikdagi kesimda tasvir olinadi).

ChPJB o'rganganda diqqatni jalb qiladi:

- Bo'g'im chuqurligining shakli, uni kengligi, chuqurligi
- Bo'g'im do'mbog'ining o'ta rivojlanganligi
- Bo'g'im boshchasining shakli, bo'g'im yorikligining xajmi, bo'g'im boshchasining va chuqurligining oraligi

Telerentgenografiya usuli asoslarini bayon kilish.

Telerentgenografiya - bu masofadagi maxsus rentgen usul, 90 sm dan - 4-5 m bo'lgan oraliqda tasvir olinadi.

Qo'llaniladi

- Yuz suyagini tuzilishi, uning usishini o'rganish uchun
- Tashxisni tasdiqlash va ortodontik davolash natijasini aniqlash uchun
- Davolash davrida bo'ladigan uzgarishni aniqlash uchun
- Jag'larning kalla suyagida joylashishini aniqlash uchun
- Jag' suyaklari o'lchamini va ularning o'zaro munosabatini aniqlash uchun
- Frontal tishlarning protruziya va retruziya xolatlarini jag'tanasiga nisbatanining aniqlash uchun

Profil telerentgenografiya - bu rentgen tasvir kalla suyagining profilda, yuz-jag‘ suyagini va yumshoq to‘qima chetini yorituvchi rentgen tasvirdir. V.Yu.Kurlyandskiy, A.El-Nofeli fokus oraliq masofani 150-200 sm da yetarli deb xisoblashgan (proeksion tarqalishi bunda 5-7%, 4m oraliqda - 2-3%)

Markaziy rentgen - nurni ko‘p mualliflar tashqi eshituv yo‘liga yunaltiradi. Kalla Frankfurt gorizontaliga moslashtiriladi va 3 ta nuqtada qotiriladi. Yon telerentgenografiya uchun ekspozitsiya kuchi 200 mA, vaqt 1/30 sekund kerak bo‘ladi. Ma’ruzachi ta’kidlab o‘tadiki yon telerentgenografiyani analiz qilish uchun kup avtorlar Shvars usulini avzalrok kuradi. Kalla asosini asosiy orientir qilib olingan holda.

A.M.Schwarz bo‘yicha telerentgenografik usullarni taxlil qilish. Shvars gorizontal tekislikdan foydalanishni tavsiya etadi.

- Kranial N - Se
- Frankfurt FH
- Spinal SNA - SNP
- Okklyuzion OsR
- Mandibulyar MP

SpP va MP oraligida tish-jag kompleksi joylashgan. U kalla suyagiga nisbatan individual turli burchak ostida joylashishi mumkin. Tish-jag kompleksining egilish burchagi yoki inklinatsiya burchagi (I). SpP va burun vertikali Rp uchrashgan joyda. Urtacha kiymati burchagini 85° ($82+3^\circ$) ga teng. telerentgenogrammada teridagi nuktalar, kichik lotin xarflari bilan, suyaklarni katta xarflar bilan belgilash kabul kilingan

Talabalarni antropometrik tekshirish usullari bilan tanishtirish: Pon, Tonn va Yekkel, Korkxauz.

Antropometrik tekshiruv usullari Pont (Fransiya), ortognatik prikusda yuqorigi 4 ta kurak tishlarning kundalang kesimi yig‘indisi, tish yoyini kichik oziq tishlararo va katta oziq tishlar soxasidagi kenglikga proporsionalligini topdi. Indekslar: 64 - kichik oziq tishlar uchun, 80 katta oziq tishlar uchun. Ponn indekslari kasalning jag‘larida torayish borligini aniqlashda ishlatiladi. Linder va Harth (Avstriya) Pon usuli indekslariga qo‘srimcha kiritishdi. Ularning indekslari 85 va 65 deb belgiladi. Amaliyotda bu indekslarni almashinuv va doimiy tishlar vaqtida ishlatish mumkinAgar yuqori jag‘dagi ikkala bir xil kurak tishlar bo‘lmasa (adentiya yoki retensiya) o‘4ta kurak tishlar kundalang kesimining yig‘indisini Tonn yoki Yekel usullari bilan aniqlash mumkin. Korkgauz yukori jag‘ 4 kurak tishlarni ko‘ndalang kesimi yig‘indisi orqali tish yoyining oldingi bo‘lagini uzunligi orasida bog‘liqlik borligini aniqladi.

Korkxauz bo‘yicha o‘lchovlar jag‘ suyaklarini old qismining rivojlanmay qolgan yoki o‘ta o‘sib ketgan vaqtlarida, oldingi tishlarning tanglay yoki og‘iz daxlizi tomon qiyshaygan anomaliyalarida qo‘llaniladi. Korkxauz o‘z izlanishlari natijasida, Pon usuliga o‘xhash matematik mikdorlarini topib, yukori jag tish yoyining oldingi kismi uzunligi bilan 4ta kesuvchi tishlarning kundalang ulchovi yigindisi o‘rtasida bogliklik borligini aniqladi. Bu ishni u markaziy kesuvchi tishlarning o‘rtasi lab tomonidan to kichik oziq tishlarning distal yuzalaridan bir-biriga tomon tutashtirilgan chiziqqacha bo‘lgan masofani o‘lchami tasdiqlanadi va topilgan yukori jagning oldingi qismi uzunligining taxminiy o‘lchamlarini jadvalga soldi. Pastki jag uchun esa topilgan ulchanlarini 2-3 mm ga kamaytirib (yuqori jag‘ kesuvchilarining kengligi xisobiga) belgilashni tavsiya etdi

Tashxis modellar

- Ulcham asboblari: sirkul, chizgich, ortometr va boshkalar.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: amaliy mashg‘ulot: Stomatologiya fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuter diagnostika

Ishdan maqsad: tinglovchilarga stomatologiya fanida zamonaviy kompyuter diagnostika: kompyuter tomografiya, mskt usullari tekshirish , davolashning samarali rejasini tuzish, zarur holatlarda tor mutaxassislar(pediatr, endokrinolog, dermatolog, gematolog) nazoratiga yo‘llanma berish va ular bilan xamkorlikda faoliyat yurita oladigan amaliyot shifokor-stomatologlarini shakllantirishdir.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar guruhlarda topshiriqni yechishadi (Har bir mavzu bo‘yicha topshiriqlar keyingi bo‘limda keltirilgan).

Ishni bajarish uchun namuna:

Tishlarning kompyuter tomografiysi eng to‘g‘ri diagnostika usullaridan biri bo‘lib xisoblanadi xozirgi kunda stomatologiyaning barcha soxasida ko‘llaniladi. Uning yordamida butin og‘iz bo‘shlig‘i o‘rganiladi.

KT ni tekshirish bu rentgen nurlardan foydalangan xolda yuz jag‘ sistemasida uch o‘lchamli suratini oladi. Bu anik tashxis ko‘yish imkonini beradi. Uch o‘lchamli surat tish va tish milk kasalliklarda eng anik ma`lumotlarni beradi chunki o‘rganyotgan soxaning istalgan burchak ostida o‘rganish imkon beradi.

KT suyak to‘kimalarining xolatini o‘rganish usullardan biridir. Ortopantomogramma va rentgenografiya bilan birga u stomatologiya va

